

Uzluksiz ta'lim tizimida "Hayot faoliyat xavfsizligi"ning vazifasi va orni

Dilshod Xoltursinovich Bekturov

Toshkent viloyati Favqulodda vaziyatlar Bosh boshqarmasi Olmaliq shahar

Hayot faoliyati xavfsizligini o'qitish markazi

Annotatsiya: Ushbu maqolada uzluksiz ta'lim tizimida "Hayot faoliyati xavfsizligi" fanining vazifasi va o'рни, ta'lim jarayonida o'quvchilarda hayot xavfsizligini ta'minlashga oid bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, ta'limda uzluksizlik va uzviylikni ta'minlash, fanlararo aloqalardan samarali foydalanish, dars jarayonini to'g'ri tashkil etish hamda innovatsion pedagogik yondashuvlarning ahamiyati tahlil qilingan. Maqolada auditoriyani boshqarish, tinglovchilar e'tiborini jalb qilish, ma'ruzachining pedagogik va kommunikativ qobiliyatlari, ishontirish, taqlid qilish, yuqtirish kabi ijtimoiy-psixologik usullarning ta'lim samaradorligiga ta'siri ham ko'rib chiqilgan. HFX fanini uzluksiz va uzviy ravishda o'qitish orqali ta'lim oluvchilarda favqulodda vaziyatlarning oldini olish, ularda to'g'ri harakat qilish, xavfsizlik qoidalariga rioya etish va o'z hayoti hamda atrofdagilar xavfsizligini ta'minlash kompetensiyalarini shakllantirish mumkinligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: uzluksiz ta'lim, uzviylik, hayot faoliyati xavfsizligi, hayot xavfsizligi, favqulodda vaziyat, xavfsizlik madaniyati, ta'lim jarayoni, fanlararo aloqa, pedagogik qobiliyat, auditoriyani boshqarish, ma'ruza, tinglovchi, kommunikativ ta'sir, ishontirish, taqlid qilish, yuqtirish, e'tibor, innovatsion ta'lim, xavfsiz xulq-atvor, amaliy ko'nikma

The tasks and role of "Life activity safety" in the continuous education system

Bekturov Dilshod Xoltursinovich

Almalyk city Life Safety Training Center, Main Department of Ministry of

Emergency Situations of Tashkent Region

Abstract: This article discusses the tasks and role of the "Life Activity Safety" subject in the continuous education system, as well as the formation of students' knowledge, skills, and competencies related to ensuring life safety in the educational process. It also analyzes the importance of ensuring continuity and consistency in education, effectively utilizing interdisciplinary connections, properly organizing the

educational process, and applying innovative pedagogical approaches. The article further examines the impact of such socio-psychological methods as classroom management, attracting learners' attention, the lecturer's pedagogical and communicative abilities, persuasion, imitation, and emotional contagion on the effectiveness of education. It is substantiated that continuous and consistent teaching of Life Activity Safety contributes to the development of learners' competencies in preventing emergencies, responding appropriately to them, complying with safety rules, and ensuring their own safety as well as the safety of those around them.

Keywords: continuous education, continuity, Life Activity Safety, life safety, emergency situation, safety culture, educational process, interdisciplinary connections, pedagogical ability, classroom management, lecture, learner, communicative influence, persuasion, imitation, emotional contagion, attention, innovative education, safe behavior, practical skills

Uzluksiz ta'lim tizimida "Hayot faoliyat xavfsizligi" fanining vazifasi va o'rni.

Tabiatda yuz beradigan xodisalar, favqulodda vujudga keladigan vaziyatlar insoniyat sogligi va faoliyatiga taxdid soladi. Shu boisdan barcha axoli qatlamlarida favqulodda vaziyatlarning sodir bo'lishini oldini olish, ularning sodir bo'lishini oldindan bashorat qilish, ximoyalanishga tayyorgarlik ko'rish, axolini evakuatsiya qilish kabi bilimlar tizimi bilan qurollantirish davr extiyojiga aylanmoqda.

Milliy dastur asosida maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim turlarining xar biri uchun davlat talablari va davlat ta'lim standartlari, ularga mos ravishda O'quv dasturi yaratilib, ta'lim-tarbiya jarayoniga bosqichma bosqich joriy etilmoqda. Xar bir ta'lim turi uchun ta'lim mazmunini tanlashda ta'limning uzluksizligi va uzviyligiga aloxida e'tibor berilishi talab etiladi. Maktabgacha ta'lim, boshlangich ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-xunar ta'limi, oliy ta'lim mazmuni orasidagi uzluksizlikii ta'minlash, ta'lim turlari o'rtasida hamda o'quv fanlari orasida uzviylikni ta'minlash borasida keng qamrovli ishlarni olib borish Milliy dasturni ro'yobga chiqarishning asosiy vazifalaridan biridir.

Albatta, biz bilim oluvchilarni xayotdagi hamma sinovlarni yengib o'ta olishlari, salomat bo'lishlari va kelajakda yaxshi inson bo'lib yetishishlarini xoxlaymiz. Bu borada ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlar xar kuni olib borilishi va mashg'ulotlar jarayonida bu bilimlar mustaxkamlanib borilishi yaxshi natija beradi.

Xar bir o'quv fani, jumladan "Hayot xavfsizligi asoslari" darslari ham o'ziga xos xususiyatga ega. Shunga ko'ra xar bir mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rishda uning xususiyati xisobga olinadi.

Darsda bilim oluvchilarning mustaqil fikrlashiga, ularda aniq malaka va tushuncha xosil qilishga e'tibor beriladi.

Bu talablarning ilmiy-amaliy jixatdan to'g'ri xal etilishi dars qismlarining bir- biri

bilan bog'lanishiga, vaqtdan unumli foydalanishga bog'liqdir. Buning uchun o'qituvchi darsning kengaytirilgan rejasini tuzib, shu reja asosida maqsadni amalga oshirishi lozim.

O'qituvchi dars rejasini tuzishda ilmiy-metodik adabiyotlardan foydalanadi. Unda darsning mavzusi, maqsadi, tarbiyaviy jixati, yondosh fanlarning nomi ko'rsatiladi. Rejada bilim oluvchilarga beriladigan savol va topshiriqlar, yangi ma'lumotning asosiy muxim joylarini, o'zaro aloqaga kirishadigan fanlar bo'yicha darsliklardan olingan qo'shimcha ma'lumotlar aniq yoziladi,

Shuningdek, o'qituvchi darsni tashkil etishdan oldin yondosh fanlar bo'yicha takrorlash, rivojlantirish zarur bo'lgan hamda yangi darsda beriladigan ma'lumotlarni va ularni bayon etish usullarini aniqlab oladi va bilim oluvchilarga mustaqil ish sifatida topshiriladigan vazifalarni belgilaydi.

Fanlararo aloqaga xos xususiyat nimadan iborat?

Fanlarni o'zaro bog'lab o'rganiladigan darslar odatdagi mashg'ulotlardan nima bilan farq qiladi?

O'quv fanlararo bog'lanishga xos xususiyat. avvalo darsdan kuzatilgan maqsad va vazifalarga qarab belgilanadi, ularni, bog'lashdagi muvaffaqiyat esa darsning to'g'ri tashkil etilishiga, qo'llanadigan usullarga bog'liqdir.

O'qituvchi dasturdagi mavzularni o'tishda darsning mazmuniga, bilim oluvchilarning bilim saviyasiga, o'zlashtirish qobiliyatiga, o'quv ko'rgazmali qurollarining mavjudligiga qarab usul va yo'llarini tanlaydi.

Shuningdek, o'qituvchi:

- yangi mavzuni o'tishga ajratilgan vaqtni xisobga oladi;
- boshqa fanlar bo'yicha yangi mavzuni uzlashtirishga yordam beradigan ma'lumotlarni aniqlaydi;
- darsda qo'llash zarur bo'lgan ko'rgazmali qurollarni (jadval, xarita, rasm, multimedia dasturi) tayyorlaydi va ulardan foydalanadi;
- bilim oluvchilarning boshqa fanlardan o'zlashtirgan bilim hamda egallagan ko'nikmalarini aniqlaydi.

Bilim oluvchilarning darsdagi faolligini oshirish, ularning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirish, fikrlash uchun faol muhit yaratish - o'qituvchining xozirgi kundagi asosiy vazifalaridan bo'lib qolmoqda.

Ta'limda uzluksizlik va uzviylik, shuningdek, o'quv fanlari orasida mazmun jixatdan uzviylik hamda kurgazmali, o'quv-uslubiy qo'llanmalar ta'minlansa va ularning mazmuni, shakl va metodlari belgilab berilsa:

bilim oluvchilarning xayot xavfsizligini ta'minlash yuzasidan nazariy bilimlari mustaxkamlanadi hamda ularning bilimlarni uzlashtirishga bo'lgan qiziqishi va intilishlari kuchayadi;

ularida xayot xavfsizligini ta'minlash samaradorligi ortadi, o'z xavfsizligini ta'minlash sohasida muayyan ijtimoiy tajribaga ega bo'ladi va o'z sog'ligi va davlat xavfsizligini ta'minlay oladi.

Bunda ta'limning uzluksizligi deganda nimani tushunamiz-u, uzviylik deganda nimani ko'zda tutamiz?

Uzluksizlik - bu maktabgacha ta'lim bilan boshlangich ta'lim, boshlangich ta'lim bilan o'rta ta'lim, umumiy o'rta ta'lim bilan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi orasidagi ta'lim mazmunida uzilish bo'lmasligi, ya'ni keyingi ta'lim turi mazmuni oldingisini uzluksizlik davom ettirishi tushuniladi.

Ta'limda uzviylik tushunchasi ikki xil ma'noda qo'llaniladi. Birinchidan, ta'lim turlari o'rtasidagi uzviylik. Bunda ta'limning keyingi turi mazmuni avvalgisini nafaqat davom ettirishi kerak, balki qisman takrorlanib, mazmun jixatidan uzviy bog'langan xolda uning keyingi ta'lim turida davom ettirishi kerak.

"Davlat ta'lim standartlari" bilan o'quv-metodik majmualar orasidagi uzluksizlik ta'minlangandagina ushbu ta'lim vositalari ta'lim-tarbiya tizimida barqaror o'rin egallaydi. Davlat ta'lim standartlari tarkibida nazariy bilim va tushunchalar, chizma va metodlar, shuningdek, amaliy ko'nikmalar va rivojlangan malakalar barobar ifodalanishi lozim. Shundagina muayyan o'quv fanining bilim oluvchi shaxsiga hamda jamiyat xayoti fan va texnikaga nisbatan rivojlantiruvchi xarakterdagi ta'siri ta'minlanadi.

Ma'ruzachi ko'zlanayotgan maqsadga erishish uchun tinglovchilarni ma'ruza davomida boshqara olishi lozim. Buning uchun tinglovchilarning emotsional holati muxim o'rin tutadi.

Yoritilayotgan muammoni to'liq ochib berish uchun tinglovchilarda ushbu muammoga nisbatan, axloqiy, intellektual, estetik xis-xayajon xosil qila bilish lozim. Bu ko'zlangan maqsadga tez erishish imkonini beradi. Demak, ma'ruzani o'tkazishdan ko'zlangan maqsadga erishishda maqsadga muvofiqlik va emotsional ta'sirning birgalikda olib borilishi muhim ahamiyatga ega.

Ma'ruzachiga tinglovchilar tomonidan quyidagi xolatlar salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin:

Kirishimlilikning sustligi - auditoriyada ma'ruzachi bilan tinglovchilar o'rtasida uzviy aloqaning o'rnatilishi, tinglovchilarni ma'ruza davomida olayotgan axborotlariga to'sqinlik qiluvchi xar xil xayollardan tiyadi. Agar tinglovchida kirishimlilik sust bo'lsa, u butun vujudi bilan auditoriyani xis qila olmaydi, butun vujudi bilan ma'ruzachini eshitmaydi, o'z xayollariga, aqidasiga o'ralashib o'tiraveradi.

Aqliy faoliyatning yuqoriligi. Inson o'z fikrini so'z orqali bayon qilishga qaraganda taxminan to'rt barobar tezroq fikrlaydi. Ma'ruzachining gaplarini eshitayotgan tinglovchilarda xar doim bu so'zlarni tahlil qilib olishdan tashqari fikr

yuritish imkoni ham mavjud bo'ladi. Yuritilayotgan fikr esa tinglovchini ma'ruzadan chalg'itadi.

Diqqatning beqarorligi. Diqqat - ruhiy faoliyatning ma'lum obyektga yo'nalganligidir. Ma'ruza davomida tinglovchilarning e'tiborini turli xil xolatlar chalg'itishi mumkin. Masalan: ma'ruzachining tashqi ko'rinishi, uning ovozi, ayrim so'zlarni talaffuz qilishi yoki xonaning harorati, uyali aloqa telefonining ishlab ketishi va x.k.

O'zgalarning fikriga nisbatan antipatiya. Odamlar ko'pincha o'zlarining nuqtai nazarlariga ega bo'ladilar va bunga qattiq ishonadilar. Shuning uchun o'zlarining nuqtai nazarlarini "ximoyalaydilar". Bu tinglovchilarda auditoriyaga kirishib keta olmaslik yoki e'tiroz bildirish, yoki ma'ruza davomida gap qistirib qo'yish tarzida namoyon bo'ladi. Bu ehtiyojni qondirmaslik tinglovchilarning ma'ruzachiga bo'lgan e'tiborini susaytiradi.

Ma'ruzachining chiqishi auditoriyani boshqarishga, tinglovchilarning birgalikda fikr yuritishlariga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Ma'ruzachining vazifasi tinglovchilarni jipslashtirish, ularning e'tiborini ma'ruzaga jamlashga xalal beruvchi barcha ta'sirlardan xolos etishdan iborat. Auditoriyani boshqarishda ma'ruzachiga ijobiy ko'mak beruvchi yuqtirish, taqlid qilish va ishontirish kabi ijtimoy-psixologik usullardan foydalanish mumkin.

Yuqtirish - kishilarni ongsizlarcha, o'zlari istamagan xolda ma'ruzachi bilan birga yoritilayotgan muammoga hamfikr, hamdard bo'lib qolishga olib keladi. Bu bir shaxsning ruxiy kayfiyatini boshqa shaxsga ko'chirish orqali amalga oshiriladi. Maqsadga erishish uchun ma'ruzachi avvalo yaxshi bilimga ega bo'lishi, ko'pchilikni qiziktiruvchi misollar keltirishi, kishilarni kayfiyatini inobatga olishi, jonli misollardan foydalanishi zarur.

Tarixda taqlid qilish usulidan ham keng foydalanib kelingan. Taqlid qilish bu - kishilar tomonidan uzinn tutishi, tashqi ko'rinishi, qiliqlarini kimgadir o'xshatish xolati xisoblanadi. Ma'ruzachi o'zining malakasini xisobga olgan xolda biror namunaviy kimsa yoki misolni xisobga olgan xolda qaytarishi mumkin.

Shunday qilib, yuqtirish va taqlid qilish tinglovchi va ma'ruzachi o'rtasidagi xis-xayajonni kuchaytiradi. Bu esa auditoriya tomonidan axborotlarning yaxshi o'zlashtirilishiga yordam beradi. Auditoriya va ma'ruzachi o'rtasidagi bog'liqlikni mustahkamlaydi.

Tinglovchilar bilan yuqori darajada barqaror aloqa o'rnatish ishoitirish va ongga singdirish orqali amalga oshiriladi. Chunki bular auditoriyadagi guruhni boshqarishning ruhiy usuli hamda fikrlarni shakllantirishning pedagogik usulidir.

Ishontirish - asosan shaxsga so'z orqali ta'sir etib amalga oshiriladi. Undan maqsadga intilgan xolatda aniq bir natija olish maqsadida foydalanish lozim. Bu usul kommunikatsion ta'sir bo'lib, tanqidga asoslanmagan, isbot talab qilmaydigan axborot

qabul qilishga asoslangan. "Ishoitirish samarasi" ikki omilga asoslanadi:

Biriichi omil - ishonishga ta'sirchanlik, beriluvchanlik,

Ikkinchi omil esa - ishontira bilish.

Ishoitirish samarasi insonlarning yoshiga va ruxiyatiga, auditoriyaniig kayfiyatiga bogliq.

Ma'ruzachining shaxs sifatleri va pedogogik qobiliyatlari.

Ma'ruzachining yaxshi sifatlaridan biri tinglovchilarga nisbatan chuqur xurmatda bo'lish, etika qonun-qoidalariga to'liq amal qilish xisoblanadi. Ma'ruzachi o'zining xaqiligini ko'rsatgan xolda tinglovchilarni kamsitishga xarakat qilmasligi, yuqori ton bilan mensimagan ohangda gapirmasligi lozim. Ma'ruzachi tinglovchilar bilan baxslashib qolgan taqdirda ham uni kamsitmasligi, burchakka tiqib ko'ymasligi, noxush ahvolda qoldirmasligi zarur.

Ma'ruzachi tinglovchilarning ko'ziga yaqin bo'ladi. Shuning uchun ma'ruza vaqtida u doimo o'z bilimiga ishongan, fikrlari to'plangan xolda o'zini osuda tutishi lozim. Pedagog xech qachon ishga tashvishli holda kelmasligi lozim, deb ta'kidlagan edi A.S.Makarenko. U atrofida yaxshi kayfiyat, ishonch paydo qilishi lozim.

Pedogogik qobiliyat - bu shaxsning qiziqishi, intilishi, izlanish faoliyatini uddasidan chiqqa bilish xususiyatidir.

Tinglovchilarning e'tiborini jalb qilishning ruhiy-pedagogik usullari

Ma'ruza davomida tinglovchilarning e'tiborini jalb qilish uchun quyidagi ruhiy-pedagogik usullardan foydalanish tavsiya etiladi:

- yangilik;
- isbotlanganlik;
- ta'sirchanlik.

Bu usullardan moxirona foydalana bilish ma'ruzaning ravonligi, ishonchliligi, auditoriya bilan muloqat jarayonini boshqarish imkonini beradi.

Yangilik - bu o'rganilayotgan muammo xaqidagi ma'lumotlar yoki avvaldan ma'lum bo'lgan faktlar xaqidagi yangicha tasavvurlar.

Tinglovchilar e'tiborini jalb kiladigan asosiy narsa uning uchun ahamiyatli bo'lgan narsa yoki ahamiyatli bo'lishi mumkin bo'lgan narsa, ya'ni yangilik xisoblanadi. Xar qadamda tinglovchilarga shunday yangilik yetkazib turilmasa uning e'tibori chalg'iydi. Ma'lumki, ma'ruzadagi eng katta yutuq bu tinglovchilarning e'tiborini jalb qilish va bu e'tiborni darsning oxirigacha saqlab turishdir.

Shunda tinglovchilarda ma'ruzachi mulohazali fikr yuritayotganligiga, o'z bilimlaridan samarali foydalana olayotganiga, o'quv savollarini yaxshi taxlil qilayotganligiga ishonch paydo bo'ladi. Bu esa ma'ruzachi uchun katta ahamiyatga ega.

Oddiy, sodda, jo'n xodisa va faktlarni ham o'ziga xos tarzda yetkaza bilishi ham tinglovchilar uchun bir yangilik bo'lib, bu ularni befarq qoldirmaydi.

Isbotlanganlik - bu berilayotgan ma'lumotlarni tinglovchilar tushunib olishi uchun dalillar va mantiqqa asoslangan holda yetkazib berishdir.

Ma'ruzachining vazifasi tinglovchilarga yangi ma'lumotlarni yetkazib berishdangina iborat bo'lib qolmasligi kerak. Ma'ruzachida ushbu ma'lumotlarning to'g'riligiga qat'iy ishonch bo'lishi lozim. Unda shunday ishonch bo'lmasa tinglovchilarni yetkazib berilayotgan ma'lumotlarining to'g'riligiga ishontirib bera olmaydi.

Ta'sirchanlik - bu ma'ruzachining xodisaga nisbatan munosabatining xis-xayajon, quvonch, afsus, ishonch, xayrat va boshqa tarzda aks etishi. Sitseronning e'tirof etishicha, yurakdan xis-xayajon bilan chiqmagan ma'ruza-bir pulga qimmat ma'ruzadir.

Tinglovchilarga bilim eng birinchi navbatda ma'ruzachining jonli nutqi orqali beriladi, shuning uchun ma'ruzaning o'zlashtirish darajasi ma'ruzachi nutqining sifatiga xam bog'liqdir. Ma'ruzachining nutqi leksika, fonetika, talaffuz, gaplarni to'g'ri tuzish, so'zlarda urg'ularni o'z joyiga qo'yib gapirish jihatidan to'g'ri bo'lishi kerak. Ma'ruza davomida shevachilikka yo'l qo'yilmasligi kerak.

Birinchi iboraning ta'siri

Ma'ruzachi ma'ruzasini e'tiborni jalb qilishdan boshlashi lozim. E'tiborni jalb qilishda esa birinchi jumlaning ahamiyati katta. Shuning uchun birinchi jumla ma'ruzaning mohiyatini anglatuvchi jumladan yoki boshqa birorta jumladan iborat bo'lishi lozim.

Tinglovchilar bilan doimiy muloqotda bo'lish va ularni boshqarishda yumor hamda dono fikrlardan foydalanish ham ularning e'tiborini jalb qilishda muhim o'rin tutadi. Chinakam pedagoglar sezgir va kuzatuvchanlik qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

Ma'ruza davomida berilayotgan mavzuni o'zlashtirish darajasini oshirish maqsadida tinglovchilarning emotsional holatini hisobga olgan holda, yangi dalillar, misollardan foydalanish maqsadga muvofiq. Ma'ruzachi tinglovchilarga ta'sir ko'rsatish uchun nutqiga, intonatsiyaga ahamiyat berishi, ular uchun tushunarli termin va ifodalardan foydalanishi lozim.

Xulosa: Ta'limda "Hayot xavfsizligi asoslari"fanini o'qitishning uzviyligi va uzluksizligiga erishilsa, ta'lim oluvchilar favqulodda vaziyatlarni oldini olish, ularda to'g'ri xarakat qilish va oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha tizimli bilim olish, malakaga ega bo'lish, ko'nikma xosil qilishlariga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun. O'RQ-637-son, 2020-yil 23-sentabr.
2. O'zbekiston Respublikasi. "Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun.

3. O'zbekiston Respublikasi. "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlash tartibiga oid me'yoriy hujjatlar.
5. Yormatov G'.Y., Yo'ldoshev O.R., Hamrayev O.D. Hayot faoliyati xavfsizligi. — Toshkent: "Aloqachi".
6. G'ulomov Z.G', Qudratov A. Hayot faoliyati xavfsizligi. — Toshkent.
7. Nigmatov I., Tojiyev M. Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi. — Toshkent.
8. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. — Toshkent: Fan va texnologiya.
9. Mavlonova R., To'rayeva O., Holiqberdiyev K. Pedagogika. — Toshkent: O'qituvchi.
10. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. — Toshkent: Moliya.